

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA BAGRIKENGLIK GOYASI

Sayfiddinova Mahliyoxon Abdulamaxmudovna

Andijon shahar 43-maktab

“Huquq va tarbiya” fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7223310>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiyada yurtimizda yashovchi har bir fuqaroning manfaatlari, huquq va burchlari qonun asosida belgilab qo'yilganligi haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Asosiy qomusimiz O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha fuqarosini millati, irqi va dinidan qat'i nazar teng huquqli deb bilishi, shuningdek, ularning vijdon erkinligini, urf-odatlarini, milliy an'analarining hurmat qilinishini kafolatlanishi to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, qonun ustivorligi, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, madaniyatlararo uyg'unlik

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda, qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarda inson sha'ni, e'tiqod erkinligi va qadr-qimmatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish g'oyasi o'z ifodasini topgan. Jumladan, Bosh Qomusimiz — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadi va tamoyili har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, kafolatlarini ta'minlashga qaratilgani e'tiborga molikdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – vijdon va e'tiqod erkinligini o'zida mujassam etgan, yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tengligini ta'minlovchi, mustaqil diyorning mustaqilligini yorqin namoyon etuvchi asosiy hujjat, baxtimiz qomusi, xalqimizning oru nomusi, diniy bag'rikengligimiz ifodasi hisoblanadi. Negaki, uning har bir moddasida, har bir bandida xalqaro huquq me'yorlari ham, milliy bag'rikenglik tamoyillari ham aks etib turadi.

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.”

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda.

Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O'zbekistonda milliy va diniy bag'rikenglik hukm surmoqda. Bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurtda, bir hududda oliyjanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o'rin egallayotgan bag'rikenglik tamoyili to'g'risida shunday deydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi".

O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xususan, mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'qitish yetti tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini o'n ikki tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, bundan tashqari, 16 ta konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat yuritadi.

Bu borada yaxlit, chuqur o'ylangan siyosat va uni amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilib, millatlararo va dinlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. Bu islohot va o'zgarishlarning negizida konstitutsion huquq va kafolatlar yotganini alohida qayd etish lozim. Turli millat va din vakillarining o'z salohiyatini to'laqonli amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar belgilangan. Bunda, eng avvalo, fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olingan.

Mazkur sohada O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sirasiga fuqarolarning teng huquqliligi, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish kiradi. Konstitutsiyaviy kafolatlar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, fuqarolarga jamoat va davlat qurilishida ishtirok etishni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni

mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model` turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T."O'zbekiston", 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. T., «O'zbekiston», 2013.
3. O. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T., «Ilm-Ziyo», 2017.